



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 278 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
Ergashev Jo'rabek Xalilovich	
Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
Jonbo'tayeva Maxarramxon	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....	27
Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
Alibekova Mahzuna	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
Ruzmetova D. A.	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
Saydanova Dilafuz Sadirdinovna	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
Akhmatova Munisa Orif qizi	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Oллоbergan qizi	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Toshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	



Talabalarining darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish	196
Dusanov Shuxrat Abdiraakovich	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari	201
Qosimova Xolida Nabiyevna	
Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari	205
Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich	
Oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni fanlararo integratsiya asosida shakllantirish	209
Allanazarova Dilobar Baxromovna	
"Alpomish" dostonida obrazlar nutqidagi pedagogik qarashlar	213
Boboqulova Aziza Adizovna	
Researching the Biochemistry and Physical Chemistry of Oral Fluid in Kids Who Are Acting Strangely	217
Eraliyeva Zulfiya Makhmudovna, Buzruzkoda Javohir	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga qaratilgan kognitiv metodlar	222
I. Matrasulova	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli didaktik vositalardan foydalanish metodikasi	225
Komilova Dilnozaxon Abdulhayevna, Xoliqova Mubinabonu Jamoliddin qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida onomastik leksikani lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitishning strategik-metodik asoslari	229
Mamatqulova Baxtixon Ravshanovna	
Raqamli matnlarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari	232
Mashrapova Sevara Xabibovna	
Extensive Pelvic Ureteral Abnormalities and Reconstructive Operations in Patients	237
Mukhsinov Sardor	
Pedagogikada metodlardan foydalanish	241
Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna	
Diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishini davolash usullari	245
Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna	
Talabalardagi sanogen tafakkurning psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish masalasi	249
Tulyaganova Dilnoza Ulug'bek qizi	
Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish	253
Abdullayev Sherzodbek	
Context, Intention, and Meaning in English Language Teaching: Developing Pragmatic Awareness in Learners of English as a Foreign Language	256
Keldiyarova Shakhriyoz, Keldiyarova Mohlaroyim	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni steam yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimi	267
Yunusova Malika Miralimovna	
Культурные и исторические коды франции в автобиографической прозе марселя паньоля	270
Рахманкулова Дилафруз Азимовна	
Трансформация роли преподавателя в условиях цифровизации высшего образования	274
Рахматова Нигина Исломовна	



DIQQAT YETISHMASLIGI GIPERAKTIVLIK BUZILISHINI DAVOLASH USULLARI

Otbasarova Umida Mexmonovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Inogamova Rano Bahodirovna

Alfraganus university pedagogika fakulteti,
logopediya yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishi (DEHB)ni davolashga zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Jahon amaliyotida qo'llanilayotgan psixoterapevtik, xulq-atvoriy, oilaviy, ta'limiy va neyropsikologik aralashuvlar, shuningdek, dori terapiyasining o'rni yoritiladi. Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishi bo'lgan bolalarda oilaviy munosabatlarni yaxshilash, ijtimoiy o'zaro ta'sir ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quv jarayonini moslashtirish hamda kognitiv funksiyalarni takomillashtirishning samarali usullari ko'rib chiqiladi. Nootrop preparatlar va atomoksetinning ta'sir mexanizmlari hamda ularning samaradorligi ilmiy manbalar asosida tavsiflanadi. Shuningdek, giperaktiv bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan "birinchi yordam" tamoyillari yoritilib, kompleks yondashuvning muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: diqqat yetishmasligi, giperaktivlik, DEHB, xulq-atvor terapiyasi, neyropsikologik tuzatish, dori terapiyasi, nootrop preparatlar, atomoksetin, psixoterapiya, ta'limiy moslashtirish.

Abstract: This article analyzes modern approaches to the treatment of Attention Deficit Hyperactivity Disorder (ADHD). It examines the role of psychotherapeutic, behavioral, family-based, educational, and neuropsychological interventions, as well as pharmacological therapy, in contemporary clinical practice. Effective methods for improving family relationships, social interaction skills, adapting the educational process, and enhancing cognitive functions in children with ADHD are discussed. The mechanisms of action and clinical effectiveness of nootropic agents and atomoxetine are described based on scientific evidence. In addition, the article presents the principles of "first aid" when working with hyperactive children and emphasizes the importance of a comprehensive multidisciplinary approach to treatment.

Key words: attention deficit, hyperactivity, ADHD, behavioral therapy, neuropsychological intervention, pharmacological therapy, nootropic agents, atomoxetine, psychotherapy, educational adaptation.

Аннотация: В статье анализируются современные подходы к лечению синдрома дефицита внимания и гиперактивности (СДВГ). Описывается роль психотерапевтических, поведенческих, семейных, педагогических и нейропсихологических вмешательств, а также медикаментозной терапии в мировой практике. Рассматриваются эффективные методы улучшения семейных отношений, социального взаимодействия, адаптации образовательного процесса и развития когнитивных функций у детей с синдромом дефицита внимания и гиперактивности. На основе научных источников описаны механизмы действия и эффективность ноотропных препаратов и атомоксетина. Также представлены принципы "первой помощи" при работе с гиперактивными детьми и подчёркивается важность комплексного подхода к лечению.

Ключевые слова: синдром дефицита внимания, гиперактивность, СДВГ, поведенческая терапия, нейропсихологическая коррекция, медикаментозная терапия, ноотропные препараты, атомоксетин, психотерапия, педагогическая адаптация.

KIRISH

Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishini davolash hamda unga aralashuv yondashuvlari, shuningdek, mavjud usullar turli mamlakatlarda farq qilishi mumkin. Biroq, bu farqlarga qaramay, ko'pchilik mutaxassislar har bir alohida holatga individual ravishda moslashtirilgan bir nechta usullarni birlashtirgan kompleks yondashuvni eng samarali deb hisoblaydi. Bunda xulq-atvorni o'zgartirish, psixoterapiya, ta'lim va neyropsikologik aralashuvlar qo'llaniladi. Dori terapiyasi diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishi bilan og'rigan bolalarda kognitiv buzilishlar hamda xulq-atvor muammolarini faqat dori vositalarisiz usullar orqali bartaraf etishning imkoni bo'lmagan hollarda individual ko'rsatkichlar asosida belgilanadi. Qo'shma Shtatlarda davolash maqsadida Ritalin preparati qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishini davolashning bir nechta yondashuvlari mavjud.

Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishini davolash o'z vaqtida amalga oshirilishi hamda quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishi bo'lgan bolalar yashaydigan oilalarda o'zaro munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan oilaviy va xulq-atvor terapiyasi usullari;
- ixtisoslashtirilgan tuzatish mashg'ulotlari orqali ijtimoiy o'zaro ta'sir ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'quv materialini aniq va tushunarli taqdim etish orqali maktab o'quv dasturini moslashtirish hamda bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini maksimal darajada oshiradigan sinf muhitini yaratish;
- kognitiv va xulq-atvor buzilishlarini faqat xulq-atvor terapiyasi, psixologik-pedagogik aralashuv hamda psixoterapiya orqali bartaraf etishning imkoni bo'lmaganda individual ko'rsatkichlar asosida dori terapiyasini buyurish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turli mashqlar yordamida ontogenezning oldingi bosqichlariga qaytiladi hamda noto'g'ri va eskirgan usulda shakllangan, allaqachon mustahkamlanib qolgan funksiyalar qayta tiklanadi. Buning uchun ularni samarasiz patologik ko'nikmalar singari maqsadli ravishda aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, samarali faoliyat ko'rsatish uchun qulayroq bo'lgan yangi ko'nikmalarni shakllantirish zarur. Bu jarayon aqliy faoliyatning barcha uch darajasida amalga oshiriladi. Ushbu jarayon ko'p oylar davom etadigan mehnat talab qiluvchi ish hisoblanadi. Bola to'qqiz oy davomida ona qornida rivojlanadi. Neyropsixologik tuzatish ham aynan shu davrga mo'ljallangan. Shundan so'ng miya kamroq energiya sarflagan holda samaraliroq ishlay boshlaydi. Qadimgi arxaiik aloqalar va miya yarim sharlari o'rtasidagi munosabatlar me'yorlashadi. Energiya, nazorat va faol e'tibor qayta shakllanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tasavvur qilaylik, shaxsiyati yetuk bola o'zini belgilangan me'yorlarga muvofiq tutishni, o'qishni va bilimlarni o'zlashtirishni xohlaydi. Ota-onasi uni yaxshi tarbiyalagan. U sinfda tinch o'tirishi, diqqatini jamlashi, tinglashi va o'zini boshqara olishi kerak. Aslida, bularning har biri alohida murakkab vazifa hisoblanadi. Hatto katta yoshdagi inson ham bir vaqtning o'zida bir nechta murakkab vazifani bajarishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu sindromga ega bolalar bilan ishlashda ularga qiziqarli, ya'ni ixtiyoriy faoliyatni taklif etish muhimdir. Bunday faoliyat esa ixtiyoriylikdan keyingi diqqatni talab qiladi.

Inson biror mashg'ulotga qiziqib, unga to'liq berilib ketganda, qo'shimcha kuch sarflamasdan faoliyatni davom ettira oladi. Shuning uchun diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishi bo'lgan bolalar kompyuter qarshisida uzoq vaqt o'tira olishlari ularning diqqatni boshqarish qobiliyati bilan emas, balki faoliyatning ularga qiziqarli ekanligi bilan izohlanadi. Diqqatni rivojlantirishga qaratilgan faol o'yinlar mavjud. Bunday o'yinlarda bola belgilangan qoidalarga amal qiladi. U impulsiv yoki hissiyotga beriluvchan bo'lishi mumkin, biroq aynan o'yin qoidalariga rioya qilish uning g'alaba qozonishiga yordam beradi. Mazkur o'yinlar diqqatni rivojlantirish maqsadida yaratilgan bo'lib, bu orqali diqqat funksiyasi mashq qildiriladi. Keyingi bosqichda esa o'zini tormozlash va cheklash funksiyasi rivojlantiriladi. Bunda bolani turli omillar orqali chalg'itish mumkin.

Har bir vazifa yuzaga kelishi bilan alohida hal etiladi. Shu tariqa, har bir funktsiya bosqichma-bosqich takomillashtiriladi. Biroq hech qanday dori vositasi xulq-atvorni o'rgata olmaydi. Shu sababli davolash jarayoniga yana ikkita yondashuv qo'shiladi:

- xulq-atvor psixoterapiyasi – muayyan xulq-atvor modellarini mukofotlash, jazolash, rag'batlantirish va cheklash orqali shakllantirish yoki bartaraf etishga qaratilgan usul;
- shaxsiyatni rivojlantirishga qaratilgan oilaviy psixoterapiya – shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni mustahkamlash hamda tajovuzkorlik va giperaktivlik kabi xususiyatlarni to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiladi.

Ushbu psixokorreksiya hamda dori vositalari bilan davolash usullarining kompleks qo'llanilishi, kasallik o'z vaqtida tashxis qilingan taqdirda, giperaktiv bolalarga mavjud buzilishlarni o'z vaqtida kompensatsiya qilish va hayotda to'laqonli muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rossiyalik mutaxassislar an'anaviy ravishda diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishini davolashda nootrop dori vositalarini qo'llaydilar. Ularning qo'llanilishi patogenetik jihatdan asoslangan bo'lib, nootrop preparatlar ushbu guruhdagi bolalarda yetarli darajada rivojlanmagan oliy psixik funksiyalarni, ya'ni diqqat, xotira, nutq, praksis, rejalashtirish, dasturlash va aqliy faoliyatni nazorat qilish qobiliyatlarini rag'batlantiradi. Giperak-



tivlik kuzatiladigan bemorlarda stimullovchi preparatlarning ijobiy ta'siri paradoksal holat sifatida baholanmasligi kerak. Aksincha, nootrop preparatlarning yuqori samaradorligi mantiqan asoslangan, chunki giperaktivlik diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishining faqat bitta klinik belgisi bo'lib, u oliy psixik funksiyalarning buzilishi natijasida yuzaga keladi.

Bundan tashqari, ushbu preparatlar markaziy asab tizimidagi metabolik jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda miyaning tormozlovchi va tartibga soluvchi tizimlarining yetilishiga yordam beradi. Kimyoviy jihatdan nootroplar tarkibi va ta'sir mexanizmi jihatidan turlicha bo'lgan preparatlar guruhini tashkil etadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, nootrop preparatlar bilan davolash 60-70 % hollarda ijobiy samara beradi. Bu bemorlarning xulq-atvori, harakat ko'nikmalari, diqqat, xotira va boshqa oliy psixik funksiyalarining yaxshilanishi, shuningdek, elektroensefalografiya (EEG) orqali qayd etilgan miya bioelektrik faolligining oshishi bilan namoyon bo'ladi.

Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishi hamda komorbid kasalliklarga chalingan bolalarni davolash klinitsistlar uchun murakkab masala bo'lib, ushbu yo'nalishdagi davolash tamoyillari hali ham takomillashtirilmogda. Mazkur muammoning istiqbolli yechimlaridan biri atomoksetin gidroxlorid (Strattera) preparatini qo'llash hisoblanadi. Ushbu preparatning asosiy ta'sir mexanizmi norepinefrinning qayta qabul qilinishini bloklash bilan bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu mexanizm natijasida prefrontal po'stloqda dopamin va norepinefrin miqdori ortadi. Atomoksetin norepinefrinning presinaptik membrana orqali qayta qabul qilinishi uchun mas'ul bo'lgan tashuvchi oqsil bilan bog'lanishni bloklaydi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, prefrontal po'stloqda dopamin ham norepinefrin kabi aynan shu tashuvchi oqsil orqali tashiladi.

Prefrontal po'stloq diqqat, ishchi xotira va ijro funksiyalarini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, preparat ta'siri ostida ushbu sohada norepinefrin va dopamin miqdorining ortishi diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishi belgilarining kamayishiga olib keladi. Ijobiy klinik ta'sir odatda davolashning dastlabki bosqichlarida kuzatiladi va preparat bir oy davomida uzluksiz qabul qilinganda yanada kuchayadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishi bo'lgan bemorlarning aksariyatida atomoksetinni kuniga 1,0-1,5 mg/kg dozada ertalab bir marta qabul qilish klinik samaradorlikni ta'minlaydi. Ayrim bemorlarda esa kuniga 1,8 mg/kg gacha bo'lgan yuqori dozalariga ehtiyoj tug'ilishi mumkin. Atomoksetin, ayniqsa, diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishi xulq-atvor buzilishlari, bezovtalik buzilishi, tiklar hamda enurez bilan birga kechgan hollarda yuqori samaradorlikni namoyon etadi. Mutaxassislar giperaktiv bolalar bilan ishlash uchun o'ziga xos "birinchi yordam" tizimini ham ishlab chiqqanlar. Uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- bolani hissiy portlash (tantrum) holatidan chalg'itish;
- uy sharoitida aniq kun tartibiga rioya qilish;
- bolaga tanlov imkoniyatini yaratish (hozirgi vaziyatda bajarishi mumkin bo'lgan boshqa faoliyatni taklif etish);
- kutilmagan savollar berish;
- kutilmagan tarzda munosabat bildirish (hazil qilish yoki bolaning harakatlariga taqlid qilish);
- bolaning harakatlarini qat'iy taqiqlamaslik;
- buyruq bermasdan, iltimos shaklida murojaat qilish;
- bolaning fikrini diqqat bilan tinglash;
- zarurat tug'ilganda so'rovni bir xil so'zlar bilan, xotirjam va neytral ohangda qayta takrorlash;
- bola harakat qilayotgan paytda uni videoga yoki suratga olish yoxud o'zini oynada ko'rsatish;
- xavfsizlik ta'minlangan bo'lsa, bolani qisqa muddatga yolg'iz qoldirish;
- bolani har qanday vaziyatda majburan kechirim so'rashga undamaslik;
- uzoq nasihat qilishdan saqlanish.

Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishini samarali davolash uchun faqat bitta usul yetarli emas. Eng yaxshi natijaga ko'p komponentli kompleks yondashuv orqali erishiladi. Xulq-atvor terapiyasi, oilaviy psixoterapiya, ta'lim jarayonini moslashtirish, maxsus tuzatish mashg'ulotlari hamda neyropsixologik treninglar kognitiv funksiyalarni rivojlantirish va xulq-atvorni barqarorlashtirishda muhim o'rin tutadi.

XULOSA

Dori terapiyasi, jumladan nootrop preparatlar va atomoksetin, faqat tegishli klinik ko'rsatmalar mavjud bo'lgandagina qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, farmakologik vositalar diqqat, xotira va o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlashda, psixoterapevtik hamda pedagogik aralashuvlar bolalarda ijtimoiy moslashuv va o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunday

qilib, diqqat yetishmasligi va giperaktivlik buzilishi bo'lgan bolalarda o'z vaqtida tashxis qo'yish, kompleks yondashuvni qo'llash hamda oila, maktab va mutaxassislarning o'zaro hamkorligi mazkur buzilish oqibatlarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barkley, R. A. Attention-Deficit Hyperactivity Disorder: A Handbook for Diagnosis and Treatment. New York: Guilford Press, 2015.
2. American Psychiatric Association. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5). 2013.
3. Brown, T. E. Attention Deficit Disorder: The Unfocused Mind in Children and Adults. Yale University Press, 2005.
4. Александрова О. Детская нейропсихология: методы коррекции. Москва, 2018.
5. Кожевникова Л. А. Гиперактивный ребёнок: диагностика, коррекция, сопровождение. Москва, 2016.
6. Antshel, K. M., et al. "Psychosocial Interventions in ADHD." Child and Adolescent Psychiatric Clinics, 2020.
7. Wilens, T. E. "Pharmacotherapy of ADHD in Children and Adolescents." New England Journal of Medicine, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.